# YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020- yilning yanvar–iyunida Sirdaryo viloyati bo’yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 4 825,8 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 3,1 % ga kamaydi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 8,3 % ni tashkil qildi.

O’zbekiston Respublikasi bo’yicha YaIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo’shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’atlari

| | *Mlrd. so’m* | | *2019- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|
| | *2019- yil yanvar-iyun* | *2020- yil yanvar-iyun* | |
| **I. YaHM** | **4 597,7** | **4 825,8** | **96,9** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati | 4 175,2 | 4 679,4 | 97,1 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 422,5 | 146,4 | 94,4 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati** | **4 175,2** | **4 679,4** | **97,1** |
| **Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi** | **1 529,2** | **1 716,3** | **98,7** |
| **Sanoat (qurilishni qo’shgan holda)** | **1 474,5** | **1 629,6** | **94,8** |
| sanoat | 1 069,4 | 1 185,9 | 95,3 |
| qurilish | 405,1 | 443,7 | 93,4 |
| **Xizmatlar** | **1 171,5** | **1 333,5** | **98,1** |

| | | *Mlrd. so'm* | | *2019- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da* |
|---|---|---|---|---|
| | | *2019- yil yanvar-iyun* | *2020- yil yanvar-iyun* | |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 258,5 | 254,6 | 87,3 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 177,4 | 193,1 | 100,8 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 735,6 | 885,8 | 101,2 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 679,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga kamaydi.

## Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



| **2019- yil** | **2020- yil** | |
|---|---|---|
| **5 516,8** | **5 679,5** | **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi** *(ming so`m)* |
| **4,5** | **-5,0** | **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari** *(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)* |

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo’jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,1 punktga oshdi va hisobot yilida 36,7 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog’ining ulushi 25,3 % dan iborat bo`lib, 0,3 punktga kamaygani holda, qurilish sohasida ham 0,2 punktga tushdi va 9,5 % ni tashkil qildi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 28,5 % ni tashkil qildi va o’tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,4 punktga oshdi.

**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha YaHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2019- yil* | *2020- yil* |
|---|---|---|
| **I. YaIM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati | 90,8 | 97,0 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 9,2 | 3,0 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi** | **36,6** | **36,7** |
| **Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)** | **35,3** | **34,8** |
| sanoat | 25,6 | 25,3 |
| qurilish | 9,7 | 9,5 |
| **Xizmatlar** | **28,1** | **28,5** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar | 6,2 | 5,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 4,2 | 4,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 17,7 | 19,0 |

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*




Solishtirma narxlarda hajm o`zgarishlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 98,7 % (YaHMning tarmoqlar bo’yicha tarkibidagi ulushi – 36,7 %), sanoatda – 95,3 % (25,3 %), qurilishda – 93,4 % (9,5 %), xizmatlar sohasida – 98,1 % ni (28,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida solishtirma narxlarda hajm o`zgarishlari savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 87,3 % (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 100,8 % (4,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,2 % (19,0 %) dan iborat bo`ldi.

## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*






2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi", "Sanoat", "Qurilish" tarmoqlari va "Xizmatlar sohasi" YaHMning mos ravishda -0,4 f.p., -1,1 f.p., -0,6 f.p. va -0,5 f.p. ga o'sishiga salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning tushishi hisobiga YaHM -0,5 f.p. ga kamaydi.

## 2020- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi

*(jamiga nisbatan % da)*



2020- yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 117,3 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –113,7 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

